

**О‘ЗBEKISTONDA XX ASRNING 30-40 YILLARDA SANOAT
ISHCHILARI TARKIBINI SHAKLLANTIRISH VA KADRLAR
TAYYORLASH JARAYONIDAGI MUAMMOLAR
(JANUBIY VILOYATLAR MISOLIDA)**

Mamatqulov Bekzod Sherozovich,
tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Iqtisodiyot va pedagogika universiteti

bmamatqulovpmqarshi@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada O'zbekistonda 1925-1940 yillarda sanoatlashtirish siyosatining amalga oshirish jarayonida sanoat sohasi ishchilari tarkibini shakllantirish va korxonalarni kadrlar bilan ta'minlash masalasi, sanoat sohasi kadrlari tayyorlash jarayonidagi ziddiyatli holatlar O'zbekistonning janubiy viloyatlarida og'ir sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ilmiy manbalar asosida tarixiy tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: Sanoat, fabrika, zavod, xotin-qizlar, gaz, kimyo, og'ir sanoat, yengil sanoat, qurilish materiallari, elektr stansiyalar, un zavodlari, oziq-ovqat. to'qimachilik, kadrlar siyosati, kon sanoati.

KIRISH

O'zbekistonda so'nggi yillarda iqtisodiy islohotlar tufayli mamlakat sanoat ishlab chiqarish tizimida tarkibiy o'zgarishlar amalga oshirilib, zamonaviy sanoat taraqqiyoti uchun keng yo'l ochildi. Iqtisodiy hayotni demokratlashtirish, soha siyosiy tizimida tub o'zgarishlar yasash, boshqarishda yangi shaklni tashkil etish va sanoat korxonalariga egalik qilishning turli shakllarini tarkib toptirish, soha kadrlarini tayyorlash borasida qator muvaffaqiyatlar qo'lga kiritilmoqda. Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga

ham bog'liq hisoblanadi. Jamiyat va davlat taraqqiyotini belgilovchi asosiy omillardan biri kadrlar masalasidir. Barcha sohalar faoliyatini yo'lga qo'yishda va rivojlantirishda kuchli ta'sir ko'rsatadigan omillardan biri ham kadrlardir.

Sovet davlati hokimiyatining dastlabki yillarida sanoat sohasi kadrlarini tayyorlash masalasi eng muammoli vazifalardan biri hisoblandi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligi va tabiiy resurslarni o'zlashtirish bilan bog'liq sanoat korxonalari soni ortib borishi natijasida ularni kadrlar bilan ta'minlashda qiyinchiliklarga duch kelindi. Ayniqsa, kadrlar orasida mahalliy millat vakillari kamchilik edi. Bu esa Rossiyadan sanoat kadrlarining O'rta Osiyo sanoat korxonalariga oqib kelishiga keng yo'l ochdi. Muhandis-texnik ziyolilar orasida mahalliy millat vakillari bor yo'g'i 1 foizni tashkil etdi.

Tarix fanlari doktori, professor O.Jo'raqulov mustaqillik yillarida O'zbekistonda sovet davri sanoati tarixi, kadrlar siyosati mavzusi yuzasidan bir qancha risola va monografiyalari e'lon qildi, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari sanoat tarixini mukammal o'rgandi. O.Jo'raqulov "Qashqadaryo sanoat tarixi" nomli risolasida Qashqadaryo viloyatida o'tgan asrning 20-40-yillarda sanoat sohasida amalga oshirilgan ishlar yangi nazariy metodologiyaga asoslangan holda bayon etilib, asosiy e'tibor mayda kustar sanoati faoliyatini tahlil etishga qaratiladi [1; 11-b].

Sovet davri sanoat sohasini kadrlar bilan taminlash masalasi hukmron kommunistik partiya manfaatlariga muvofiq amalga oshirilib, bu jarayon ziddiyatli xususiyatga ega bo'ldi. Mamlakat miqyosida industrlashtirish sur'atining yuqoriligi ishchi va injener texnik xodimlarining son jihatidan yil davomida ko'payib borishiga imkon yaratdi. 1922-yil O'zbekistonda sanoat sohasida 7555 nafar ishchi faoliyat olib borgan bo'lsa, 1939-yilga kelib ular soni 122,2 ming nafarga yetdi. Ishchilarning miqdor jihatidan o'sishi, uning sifat darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Sanoat korxonalarini barpo etish, kadrlar siyosatida rivojlantirishning ekstensiv yo'li tanlanib, ishlab chiqarish kuchlarining joylashtirilishda mintaqaviy xususiyatlar hisobga olinmadi.

Ishchilar safini to'ldirishning asosiy manbalari ishsizlar, dehqonlar, uy bekalari hamda markaziy hududlardan yuborilgan aholi bo'ldi. Sanoat korxonalarining ko'pchiligi o'z faoliyatini to'xtatdi. Natijada 1923-yilda O'zbekistonda sanoat ishchilari soni 11,716 nafar kishidan 1926-yil 10,800 nafarga tushdi. O'zbekistonda 1926-yil 27,8 ming nafar kishi ishsizlik bo'yicha ro'yxatga olingan bo'lsa, 1930-yil ular soni 54000 nafar kishi bo'ldi [2; 11-b].

O'zbekistonda sanoat ishchilarini shakllantirishda qo'shni respublikalardan ishchi kuchlarining oqib kelishi ham kuchli ta'sir ko'rsatdi. 1926-1940-yillarda O'zbekiston aholisi yangi ko'chib kelganlar hisobiga 750 ming kishiga ko'paydi. Markaziy shaharlardan O'zbekistonga yuborilgan ishchi va xizmatchilarga bir qator imtiyozlar belgilandi. Ularnig maoshlariga 10 foizlik ustama haq to'lanib, turar-joy, mehnat ta'tillari, oziq - ovqat va sanoat mahsulotlari bilan ta'minlashda ham imtiyozlar berildi. O'zbekistonda chekka hududlardan mutaxassislarni jalb etish ishiga davlat tomonidan anchagina mablag' sarflandi. Ular asosan iqtisodchi, injener, hisobchi, korxona boshlig'i lavozimlariga qo'yilib, ularga 150 rubldan 400 rublgacha maosh belgilandi[3; 87-b].

Z.Mirzayev, E.Qobulovning "Surxondaryoda paxtachilik va Termiz paxta tozalash zavodi tarixi" nomli risolasida Surxondaryo viloyatidagi Termiz paxta tozalash zavodida 1926-1927-yillarda paxta tozalash zavodi yangi press mashinalari bilan jihozlanganligi, bu zavodning quvvatini bir muncha oshirgan bo'lsada, lekin mazkur zavodda kamchilik va muammolar ko'pligi alohida ta'kidlanadi. O'sha davrlarda zavodda ishlagan Xolliyev Qurt bobo zavoddagi ahvol haqida shunday hikoya qiladi: "1927-yillarda ham zavodda yetakchi ishni bug' mashinasi bajarar edi. Bug' mashinasini yurgizish uchun 15 kishi lo'x urar edi, o'rilgan lo'xlar 8 aravada olib kelinardi. Har bir arava lo'x uchun 1 so'm berilardi. O'sha davrlarda men bilan birga zavodga lo'x tashigan aravakashlar: Qurt Maxsum, Jo'ra Maxsum, Cho'pon Xoliq, Hayit Imomqul, Allayor va Jo'ra Qora. Lo'x o'radiganlar asosan kunda yollanib ishlaydigan kishilar edi. Zavoddagi ishlar o'sha davrda ham qo'l kuchlari hisobiga

bajarilardi. Fozil, Bobo Ochil, Avaz Sharip va boshqa men yaxshi taniydigan kishilar zavodda ishlardi” [2; 144-b].

Markaziy hududlardan Oʻrta Osiyoga aholini ishga yuborishdan asosiy maqsad faqat iqtisodiy masalalar bilan bogʻliq boʻlmay, balki oʻziga xos siyosiy maqsadlar ham mavjud edi. Xolbuki, Oʻzbekistonning oʻzida malakali ishchilarni tayyorlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar keng miqyosda olib borilsa, bu sohaga sarflangan mablagʻ ancha tejalgan boʻlar edi.

Sanoat korxonalari asosan Toshkent, Fargʻona va Samarqand viloyatlarida joylashtirilganligi sababli, ishchilar soni ham mazkur viloyatlarda koʻp boʻldi. Oʻzbekistonda ishchilarning asosiy qismi Toshkent viloyati hissasiga toʻgʻri keldi. 1934-yil respublika boʻyicha 54694 nafar ishchidan 22985 nafari mazkur viloyatda edi. Qashqadaryo viloyatida Oʻzbekistondagi jami sanoat ishchilarining faqat 2,3 foizi faoliyat olib bordi. Bu koʻrsatkich Surxondaryoda 1,5 foiz, Xorazmda 2,4 foizni tashkil qildi. Oʻzbekistonning boshqa viloyatlarida sanoat ishchilari soni koʻpayib bordi. Masalan, 1923-yil Andijon viloyatida sanoat ishchilari soni 397 nafardan 1934-yil 2691 nafarga, Qoʻqonda 757 nafardan 4464 nafarga, Namanganda 310 nafardan 5300 nafarga koʻpaydi [4; 65-b].

TADQIQOTNING ASOSIY NATIJALARI

Sovet davlatida koʻp yillar davomida mahalliy millat vakillarini ishlab chiqarishga jalb etish, ular malakasini oshirish ishiga ikkinchi darajali vazifalardan biri sifatida qarab kelindi. Mahalliy millat vakillari asosan kam malaka talab etiladigan ishlarga qoʻyildi.

Mahalliy millat vakillari salmogʻi turli viloyatlar hamda sanoatning turli tarmoqlari boʻyicha tahlil etilganda koʻrsatkichlar turlicha namoyon boʻldi. Masalan, 1928-1934-yilgacha Oʻzbekiston neft sanoatida mahalliy millat vakillarining salmogʻi 39,6 foizdan 56,1 foizga, paxta tozalash zavodlarida 68,9 foizdan 72,8 foizga ortganligi kuzatiladi. Ammo, sanoat korxonalarining baʼzilarida aksincha holat roʻy

berdi. Jumladan, 1928-yili to'qimachilik sanoatida mahalliy millatga mansub ishchilar 70,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, unda o'zbek ishchilari salmog'i 49,8 foiz bo'ldi [5; 134-b].

Toshkentda sanoat ishchilarining moddiy ahvoli masalasida ham muammolar mavjud edi. Ishchilarning ish haqlari normadan past bo'lishi bilan birga o'z vaqtida to'lanmadi. Tog'-kon sanoat ishchilarining oziq-ovqat iste'mol darajasining nochorligi, og'ir mehnat, yashash va ishlash uchun yetarli shart-sharoitlarning mavjud bo'lmaganligi tufayli shtatlar kadrlar bilan to'la ta'minlanmadi. Arxiv materiallardagi raqamlar shundan dalolat beradiki, mehnat muhofazasi va texnik xavfsizlik talab darajasida bo'lmadi. Masalan, signalizatsiya uchun ajratilgan 11960 rubldan 10087 rubli o'zlashtirildi. Zavodlarda ventilatsiya umuman o'rnatilmadi.

Ishchilarning maishiy turmush sharoitlarining og'irligi, mehnat muhofazasining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligi kabi sabablar tufayli kadrlar qo'nimsizligi juda yuqori bo'ldi. 1931-yilda respublika sanoat korxonalarida 14365 nafar kishi ishga qabul qilingan bo'lsa, 11882 nafari ishdan bo'shatildi.

Bu kabi holatlarga sovet davri adabiyotlarida quyidagicha izoh beriladi: "... ishchilar sinfining moddiy va madaniy darajasini oshirishga yetarli e'tibor qilinmasdan ixtisosli va ixtisosiz ishchilarga ham bir xilda ish haqi to'lana berardi. Masalan, Toshkentdagi 5-sonli ko'n zavodida shunday hodisa ro'y berganki, qora ishchi oyiga 20-25 so'mdan ishlagan holda, ishlab chiqarish tajribasiga ega bo'lgan instruktor yoki sex boshlig'i faqat 150-175 so'm ish haqi olgan. Mehnatga haq to'lashning noto'g'ri uyushtirilishi natijasida ishchilarni ma'muriy-texnik ishlariga ko'tarish o'zi bo'larchilikka tashlab qo'yilgan". Masalan, 1933-yilning birinchi kvartalida Quvasoy elektr stansiyasiga 355 kishi ishga kelgan bo'lsa, 843 kishi ishdan ketdi. Natijada shu yili mazkur tashkilotlarda qurilish-montaj ishlarining tannarxi 21 foizga oshdi. [7; 46-b].

1923-yilda Turkistonda 11 ta hunar-texnika maktablari bo'lib, ularda 865 ta o'quvchi tahsil oldi. Shu yili o'lkada 19 ta hunar texnika kurslarida 1379 nafar tinglovchi qatnashdi. Texnikumlarda 827 nafar kishi o'qidi.

1926-yil O'zbekistonda 10 fabrika-zavod ta'limi maktabida 738 nafar o'quvchi, 3 ta hunar-texnika maktabida 176 nafar kishi o'qidi.

1925-1926-yilda hunar-texnika ta'limi uchun O'zbekistonda 1 mln 230 ming rubl ajratildi. Ammo bu turdagi ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasi nochor bo'lib, o'quv xonalari yaxshi jihozlanmadi. Ularda pedagog kadrlar yetishmadi.

Sovet davlati ishchilari orasida hukmron mafkura g'oyalarini keng targ'ib etish maqsadida partiya maorifi ishini jonlantirishga harakat qilindi. Masalan, 1927-yili birgina Toshkentning Markaziy, Qizil Sharq, Birinchi may tumanlaridagi korxonalarda 158 ta siyosiy maktab ochilib, ularda 3450 tinglovchi ishtirok etdi.

Ishchilarga yaratilgan maishiy-turmush sharoitlarining nochorligi, mehnat intizomining sustligi, ishchilarning ish faoliyatini tashkil etishdagi kamchiliklar, ishchi va xodimlar o'rtasida sababsiz ishga kelmaslikning ko'payishi hamda o'z xohishiga ko'ra ishni tashlab ketishga sabab bo'ldi. 1929-yil O'zbekistondagi paxta tozalash zavodlarining mehnat intizomi tekshirilganda, ko'plab salbiy holatlar aniqlandi. Masalan, korxonaga navbatchilikka qo'yilgan ishchilar o'z ish joylarini bimalol tark etib, bu holda zavod ma'muriyatini umuman ogohlantirmaslik hollari aniqlandi. Davlat mulkini talon-taroj qilish, ish joyiga spirtli ichimlik iste'mol qilgan holda kelish odatiy hol hisoblandi. Mehnat intizomini yaxshilash yuzasidan korxonalar ma'muriyati deyarli hech bir chora-tadbirlar ko'rmaganlar.

Ishchilar orasida "sarkorlar" alohida mavqega ega edi. Sarkor – bu zavodning sobiq xo'jayinlari tomonidan tayinlangan kishilar. Zavod egalari ishchilar bilan sarkorlar orqali aloqa olib bordi. Zavodlar natsionalizatsiya qilingandan keyin ham, sarkorlar ishlashda davom etib, ular ishchilarning ish haqlarini o'z foydalari uchun ishlashga majbur etdi. Sovet paxta tozalash zavodlarida ham sarkorlar yashirin ravishda o'z faoliyatlarini davom ettirdi. Bunday holat Samarqand 66, Fedchenko 20,

Qo'qonqishloq 6 paxta tozalash zavodlarida aniqlandi. Sarkorlar ishchilar orasidagi ta'siridan foydalanib ishchi komitetlari a'zoliciga saylanib olganlar. Shuningdek, arxiv hujjatlarida ta'kidlanishicha, Samarqand va Qo'qonqishloq zavodlaridagi ish tashlashlar sarkorlar tashabbusi bilan uyushtirildi. Ishchilarga haq to'lashda qoidalarga amal qilmaslik, maoshlarning kamligi tufayli Samarqanddagi 66 sonli, Qo'qonqishloqdagi 6-sonli zavodlarda ishchilarning ochiqdan ochiq ish tashlashlari bo'lib o'tadi. Qo'qonda ishchilar maoshlarini oshirishni talab qilib ish tashladilar, shuningdek, millatchilik tufayli ham qarama-qarshiliklar kelib chiqdi. Samarqand 66 sonli zavodida tojik ishchilari ma'muriyat tomonidan taklif etilgan o'zbek ishchilarini zavodda ishlashlariga to'sqinlik qilib, bosh ko'tardilar.

Tarix fanlari doktori, professor E.Qobulov Surxondaryo viloyati misolida sanoatlashtirish siyosatining salbiy oqibatlarini quyidagicha izohlaydi. 1931-1933-yillarda Surxondaryo viloyatida ham Termiz paxta tozalash zavodining ikkinchi navbati, limonad zavodining tashkil etilishida muammolar yuzaga keldi. Bunday holatning yuzaga kelishiga asosiy sabab:

birinchidan, rejalarning noaniqligi;

ikkinchidan, sanoat korxonalari ishchilarining nochor ahvoli, ularning moddiy-maishiy jihatdan yetarli ta'minlanmaganidir[8; 12-b].

Sovet davri hujjatlarida kadrlar tayyorlash rejasi ortig'i bilan bajarilganligi qayd etiladi, amalda ishchilar malakasini oshirish o'qitish yuzasidan trest boshliqlari va zavod direktorlari masalaga kerakli e'tibor qaratmadi. Kadrlar o'quvsizligi uchun trest ma'muriyati shtatlari kadrlar bilan to'la ta'minlanmadi.

Hozirgi kunda qo'yilayotgan murakkab vazifalarning ijobiy hal etilishi ko'p jihatdan uning tarixiga ham bog'liq hisoblanadi. Shuning uchun soha tarixini chuqur o'rganib, har tomonlama chuqur tahlil qilib, umumlashgan xulosalar yordamida ertangi kun istiqbollari belgilash O'zbekiston tarixi fanining dolzarb masalalaridan biriga aylanmoqda. Jumladan, sanoat sohasining 1925 – 1941-yillardagi tarixi eng

murakkab va shu bilan bir qatorda qiziqarli mavzulardan biri sifatida e'tirof etiladi. Bu davrda sovet davlati sanoat sohasida ham "sotsialistik qurilish" g'oyasini ilgari surib, tizim faoliyatini yo'lga qo'yishida jiddiy o'zgarishlar qilindi. Ammo bu o'zgarishlar Markaz manfaatlariga muvofiq amalga oshirilib, O'zbekistonning paxta xom ashyosi bazasi sifatida ixtisoslashuvi jarayoni yanada kuchaytirildi. Sanoat qurilishidagi zarur nisbatlar buzilishi, ma'muriy buyruqbozlik, noaniq topshiriqlar, mutaxassis kadrlar tanqisligi, besh yilliklarda asossiz va amalda bajarib bo'lmaydigan vazifalarning belgilanishi kabi holatlar soha faoliyatida salbiy oqibatlarni keltirib chiqardi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 12-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Sanoat xavfsizligi davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4058-sonli Qarori, 2019-yil 10-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va sanoat vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4105-sonli Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-iyuldagi "Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6244-sonli Farmonlari soha faoliyatini takomillashtirishga oid meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

XULOSA

Sanoat tarmoqlarini kadrlar bilan ta'minlash masalasida ham kommunistik partiya mafkurasi nuqtayi nazaridan yondashildi. "Sotsialistik sanoatlashtirish" Markazning xohish-irodasiga muvofiq amalga oshirilib, ishchilar hamda muhandis-texnik kadrlarni shakllantirishda imperiyacha maqsadlarga asoslandi. Kadrlar siyosatida ham rivojlanishning ekstensiv usuli qo'llanib, miqdor ketidan quvish tendensiyasiga amal qilindi. Sun'iy migratsiya Sovet davlatining ruslashtirish siyosatining muhim vositasiga aylanib, mahalliy millat vakillaridan malakali kadrlar tayyorlashga jiddiy to'siq bo'ldi. Ko'chib kelgan yevropalik ishchi va xodimlarga davlat tomonidan bir qator imtiyozlar berildi hamda ular sanoatning muhim tarmoqlarida, asosan aqliy mehnat bilan bog'liq, ish haqi yuqori lavozimlarini egalladi. Oliy o'quv yurtlari va

o'rta-maxsus bilim yurtlarini tashkil etish va muhandis – texnik kadrlarni tayyorlashda bir qator muammolar mavjud edi. Sovet davlatida mehnatga haq to'lash to'g'ri tashkil qilinmadi. Ixtisosli va ixtisossiz, malakali va malakasiz ishchilarga bir xilda haq to'landi. Bundan tashqari O'zbekiston sanoat korxonalari ishchi va xizmatchilarining ish haqi Ittifoq ishchilarining o'rtacha ish haqidan ancha past bo'ldi. Ishlab chiqarish o'sish sur'ati bilan ish haqining o'sish sur'ati o'rtasida jiddiy tafovut mavjud bo'ldi. Yalpi mahsulot hajmi orasida, ishchilarning maoshlari ko'tarilmadi. Ishchilarning moddiy turmush sharoiti hamda mehnat sharoitlari talab darajasida bo'lmadi. Ishchilar eng xaroba kulba va arklarda yashadi. Ma'lum sabablarga ko'ra ishchilar qo'nimsizligi O'zbekistonda boshqa respublikalarga nisbatan yuqori bo'ldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sherozovich, M. B. (2024). CONFLICT SITUATIONS IN THE PROCESS OF TRAINING INDUSTRY PERSONNEL IN SURKHANDARYA AND KASHKADARYA REGIONS: HISTORICAL ANALYSIS AND RESULTS (1925-1950). *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 39(5), 221-225.
2. Sherozovich, M. B., & Shuhratovna, M. N. (2024). DEVELOPMENT OF FOOD INDUSTRIES IN THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES. *World scientific research journal*, 24(1), 188-194.
3. Sherozovich, M. B. (2024). DEVELOPMENT OF HEAVY INDUSTRIES IN THE SOUTHERN PROVINCE OF UZBEKISTAN: HISTORICAL ANALYSIS AND CONSEQUENCES (1930-1960). *Modern education and development*, 16(5), 267-277.
4. Маматкулов, Б. (2024). Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida yengil sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, kadrlar tarkibini shakllantirish jarayonlari (1925-1950-yy). *Общество и инновации*, 5(5), 211-218.

5. Baymanovna, A. R. (2024). Uzbekistan-India: Development of Economic Cooperation. *Excellencia: International Multi-disciplinary Journal of Education* (2994-9521), 2(5), 594-598.
6. Baymanovna, A. R., & Isxoq ogli, Q. M. (2024). O 'ZBEKISTON BILAN HINDISTON O 'RTASIDA IQTISODIY HAMKORLIKNING RIVOJLANISHI. *Лучшие интеллектуальные исследования*, 15(3), 31-34.
7. Baymanovna, A. R., & Eshqobil ogli, M. B. (2024). ESTABLISHMENT OF CULTURAL RELATIONS BETWEEN STATES AND ITS HISTORICAL BACKGROUND. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 40(5), 27-30.
8. Shonazarovich, Q. A., & Adilovna, B. G. (2024). OLTIN VOHA TERPALARI TILSIMI-TARIX KO 'ZGUSIDA: Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari. *Yangi O'zbekiston taraqqiyotida tadqiqotlarni o'rni va rivojlanish omillari*, 6(2), 86-94.
9. Shonazarovich, K. A. (2023). Development of the Craft Industry in the City of Karshi at the Beginning of the 19th-20th Centuries. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 4(12), 135-138.
10. Shonazarovich, Q. A. (2024). IN 1925-1954, THE MEASURES FOR THE SPECIALIZATION OF UZBEKISTAN AS THE MAIN COTTON BASE OF THE USSR AND ITS CONSEQUENCES. *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(5), 67-71.
11. Shaxnoza, E. (2024). QASHQADARYO VILOYATIDA IJTIMOIIY-GUMANITAR FANINING RIVOJLANISHIDA XOTIN-QIZLARNING O 'RNI. *Modern education and development*, 16(5), 216-226.

12. Elboyeva, S. B. (2022). МИЛЛАТЛАРАРО ҲАМЖИҲАТЛИК–ХАЛҚИМИЗ ТИНЧЛИГИ ВА ФАРОВОНЛИГИНИНГ МУҲИМ ОМИЛИДИР. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(5-2), 377-385.
13. Elboyeva, S. B. (2022). YOSHLARDA YUKSAK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHNING DOLZARBLIGI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(1), 576-581.
14. Ergashev, U. Q. (2024). INFORMATION ABOUT THE VILLAGES OF THE INHABITANTS OF THE GUZOR STATION OF THE EMIRATE OF BUKHARA BY AMLOK (late 19th–early 20th centuries). *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(10), 265-270.
15. Ergashev, U. Q. (2024). IMPORTANT INFORMATION ABOUT THE HISTORY OF THE GUZOR KINGDOM OF THE BUKHARA EMIRATE (BASED ON THE EXAMPLE OF GULSHANI'S BOOK “THE HISTORY OF HUMOYUN”). *Western European Journal of Historical Events and Social Science*, 2(10), 74-79.
16. Kuziyevich, M. R. (2024). Future scientific potential personnel in education interdisciplinary integration and from dependence of use efficient methods. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 4(5), 616-618.
17. Esonova, N. (2024). O ‘ZBEKISTONDA SANOAT RIVOJLANISHI TARIXINING MUSTAQILLIK DAVRIDA O ‘RGANILISHI. *ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ*, 56(2), 19-22.
18. Pulatovna, E. N. (2024). UZBEKISTAN'S PLACE IN INTERSTATE INDUSTRY AND TRADE EXHIBITIONS (1991-2021 YEARS). *International journal of artificial intelligence*, 4(07), 342-343.
19. Esanova, N. P. (2024). MAIN FACTORS OF TEXTILE INDUSTRY DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN (1991-2021 Years). *Web of Technology: Multidimensional Research Journal*, 2(9), 5-13.

20. Ochilova, N. (2023). SHaping the thinking of youths by promoting the idea of national recovery-national upgrade. *Development of pedagogical technologies in modern sciences*, 2(10), 75-79.
21. Ruzimuratovna, N. O. (2022). Book Reading-Young People as a Factor of Spiritual and Moral Growth. *Central Asian Journal of Social Sciences and History*, 3(11), 116-118.
22. Ochilova, N. R. (2023). The importance of moral education of young people in the development of new Uzbekistan. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 25-28.
23. Akbarovna, S. N. (2024). PROBLEMS IN THE MATERIAL AND TECHNICAL BASE OF SECONDARY SCHOOLS OF THE SOUTHERN REGIONS OF UZBEKISTAN IN THE YEARS OF INDEPENDENCE AND THEIR SOLUTION. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(3), 321-323.
24. Sharopova, N. (2023). QASHQADARYO VILOYATI UMUMTA'LIM MUASSASALARI MODDIY-TEXNIKA BAZASINI MUSTAHKAMLASH TADBIRLARI VA ULARNING NATIJASI. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (9), 518-522.
25. Akbarovna, S. N. (2024). THE NEW LAW" ON EDUCATION" IN NEW UZBEKISTAN AND ITS CONTENT. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(6), 35-36.
26. Burieva, M. S. (2023). FROM THE HISTORY OF MUSIC CULTURE OF AMIR TIMUR AND THE TEMURIAN PERIOD. *International Multidisciplinary Journal for Research & Development*, 10(12).
27. Murtazova, S. B. (2021). VATAN HIMOIYACHILARI YODI MANGU BARHAYOT!(Ikkinchi jahon urushida noma'lum ketgan bobom Begmatov Omon va

Xaramjo 'ylik urush qatnashchilari haqida). *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(4), 544-549.

28. Buriyevna, M. S., & Sherozovich, M. B. THE FACTOR OF ISLAM RELIGION FOR ENSURING PEACE AMONG CONFESSIONS (USING THE EXAMPLE UZBEKISTAN EXPERIENCE).

29. Suyunovna, J. S. (2023). THE IMPORTANCE OF GENDER EQUALITY IN THE EDUCATION OF CHILDREN IN THE FAMILY. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY*, 1(9), 114-117.

30. Suyunovna, J. S. (2021). MA'NAVIY YUKSALISH YO'LIDAGI TAHDIDLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 1(3), 186-194.

31. Жумаева, Ш. С. (2023). Ахборот хавфсизлиги ва мафкуравий ҳимоя. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(5 SPECIAL), 286-290.

32. Akhmedova, D. S. (2023). SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(11), 304-309.

33. Sadullayevna, A. D. (2023). Young People-The Creators of New Uzbekistan. *The Peerian Journal*, 25, 11-16.

34. Sadullayevna, A. D. SPIRITUAL IMAGE OF YOUNG PEOPLE WITH A MODERN WORLDVIEW.